



## O'ZBEK XALQINING UY-JOI QURISH, JIHOZLASH VA UNI BEZATISHDAGI AN'ANALARI.

**Raxmonova Nigora,**

*Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi bosh muhofizi*

**Shadieva Ulug'oy,**

*Farg'ona viloyati tarixi madaniyati davlat muzeyi sektor mudiri*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.19606907>

**Annotatsiya.** Xalqlarning o'ziga xos urf-odatlarini, dunyoqarashi quriladigan imoratlar, ularni bezatish hamda jihozlashda ham o'z aksini topadi. O'rta Osiyo xalqlarining me'morchilik san'ati ko'p asrlik tarixga ega. Arxeologik qazilmalar paytida topilgan inshootlar qoldiqlari, hozirgi kungacha saqlanib qolgan binolar ajdodlarimizning o'ziga xos urf-odatlarini to'g'risida boy ma'lumotlar beradi. E'tiborli tomoni shundaki, hozirgi kunda qad ko'tarayotgan binolarda ham xalqimizning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rish mumkin. Ushbu maqolada xalqimizning uy-joy qurish qurish, uni jihozlash va bezatishdagi an'analari to'g'risida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Vassa, lo'mboz, ichkari, tashqari, obrez, loysuvoq, paxsa, sandal, o'tov, peshtoq, gumbaz, o'choq, shiypon.

**Annotation.** Each nation's unique customs and world view are reflected in the buildings they construct, as well as in their decoration and furnishing. The architectural art of the peoples of Central Asia has a history spanning many centuries. The remains of structures found during archeological excavations, as well as preserved buildings that have survived to the present day, provide rich information about the distinctive traditions of our ancestors. It is noteworthy that even in modern buildings, one can observe the unique characteristics of our people. This article discusses the traditions of our people in building homes, as well as in decorating and furnishing them.

**Keywords:** Romm, atlik, inner courtyard, outer courtyard, carved decoration, clay mixture, adobe, sandal (traditional hedging table), oven dome, fireplace, canopy.

O'zbekistonning turli tarixiy, tabiiy-geografik sharoiti bu yerda har xil xalq me'morchilik maktablarini yuzaga keltirgan edi. Hozirgacha saqlanib kelgan, asosan qurilish konstruksiyasi va uslubi, planirovkasi va bezaklari bilan ajralib turgan, mustaqil va o'ziga xos Farg'ona, Buxoro, Xiva va Sh ahrisabz me'morchiligi mashhur bo'lib kelgan. Masalan, Farg'ona vodiysida seysmik zona bo'lganligi tufayli asosan ikki qator qo'shsinch uylar kurish. zilzila kam bo'ladyg'an Xivada esa bir qator sinchdan imorat solish odat bo'lgan. Farg'ona vodiysida yog'ingarchilik ko'p bo'lganligi uchun tom qurishda lo'mbozning qalinligi 40 sm gacha bo'lsa, yog'ingarchilik kam bo'ladigan Xorazm vohasida lo'mboz 10—15 sm.dan oshmagan. Uy-joy qurilishida o'zbeklarda ba'zi bir o'ziga xoslik saqlansa-da, umumiy yagona me'morchilik tipi keng tarqalgan. Qadimiy uylar odatda biqiq, ko'cha va qo'shni tomoni derzasiz devor bilan o'ralgan hovlilardan iborat bo'lgan. Barcha turar joy va xo'jalik xonalarining oynalari ichkari tomonga qaratilgan. B adavlat katta oilalarda hovli ikki qismga: bola-chaqa va ayollar uchun ichkari hamda



erkaklar uchun mehmonxona tarzida hashamatli xonali tashqariga bo‘lingan. Hunarmandlarda do‘kon va shogirdlar yashaydigan xonalar ham tashqarida bo‘lgan. O‘rtacha oilalarda mehmonxona sifatida uyning bir hujrasi ajratilgan Ko‘pchilik uy-joylarning tuzilishi oila a‘zolarining soniga qarab bir necha uy (xona), dahliz va ayvondan iborat bo‘lgan, xo‘jalik xonalari, oshxona, hojatxona va molxona hovlida qurilgan. Zich aholili shaharlarda mehmonxona ikkinchi qavatda — bolaxonada joylashgan. Masalan, Buxoroda ikki yoki uch qavatli uylar qurish odat bo‘lgan. Toshqent va Buxoroda ayrim hovlilarnint 80—90 foizi, ba‘zan hatto 100 foizi qurilish bilan band bo‘lgan va har bir metr joydan maqbullik bilan foydalanilgan. [1, b.21]

Uy-joylarni qurishda ishlatiladigan an‘anaviy asosiy material loy (paxsa), g‘isht, guvala va yog‘och (asosan terak va tol) bo‘lgan. Pishgan g‘ishtdan ilgari madrasa, hammom va katta boy hamda amaldorlarning uylari qurilgan. Ko‘pchilik uylarda devorlar asosan somon aralash loydan suvoq qilingan, Badavlat uylarning devorlari ganchdan naqsh bilan ishlangan. Asrimiz boshlarigacha uy-joylar poydevorsiz oddiy tekislangan yerga qurilgan, ba‘zan tosh yoki birikqi qator pishgan g‘isht to‘shalgan, yer tagi suvlary yaqin va tuzli sho‘r yerlarda paxsa poydevoriga qamish yoki chipta to‘shab devor ko‘tarilgan. Buxoroda ba‘zan uy ostiga yarim yerto‘laga o‘xshash omborsimon xona qurilgan. Odatda pol oddiy yer sathidan iborat bo‘lib, ayrim uylarda suvoqli, boyroq kishilar pishgan g‘ishtdan polni to‘shaganlar. Tomni yog‘och ustun va bolor bilan vassa hamda qamish yoki bo‘yra to‘shab loydan lo‘mboz qilib bostirganlar. Tom har yili somon loy bilan suvab turilgan, yomg‘ir suvlari oqishi uchun unga yog‘och yoki sopol tarnov o‘rnatilgan. Tashqi ko‘rinishi oddiygina bo‘lsa-da, ko‘p uylarning darvoza va eshiklariga o‘yma naqsh berilgan, dahliz va ayvonlari ixcham va peshtoqli bo‘lgan. XIX asr oxirlariga kelib bir oz inqirozga uchragan koshinchilik keyingi yillarda ta‘mirchilik ishlari tufayli qayta tiklanib, yana jonlandi. Buxoro va Xivada hovli eshiklariga jez yoki temirdan yasalgan bolg‘a yoki halqasimon boldoq osilgan. Eski tipdagi uylarning xonalari va oynalari ayvonga chiqqan, darchalar yer sathi bilan teng bo‘lgan. Eshiklar ichkariga, darchalar tashqariga ochilgan. Deraza yoki eshikning yuqori qismiga yoriq tushadigan piramon (tobazon) qo‘yilgan, unga yog‘och yoki ganchdan yasalgan panj ara o‘rnatilgan. Uyga kiradigan joyda eshik oldida to‘g‘ri burchakli peshtoq (poygak) bo‘lib, unga poyabzal yechib qo‘yilgan. Eshik oldidagi burchakda suv to‘kiladigan (oqizadigan) maxsus joy (obrez, adan, tashnav) joylashgan bo‘lib, unga Buxoro va Samarqandda marmar tosh, Xivada maxsus sopol buyum o‘rnatilgan. [2, b.14]

O‘zbek uylarida qadimdan mahalliy iqlim sharoitiga moslashgan ayvon muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Uning tarkibiy qismi sifatida ayvonda yoki hovlida g‘isht yoki loydan supa qurilgan. Ayvon va supa ba‘zan butun xonalar qatoriga uzunasiga yoki bir qismiga baland qilib joylashgan. Toshkent, Buxoro va Xiva hovlilarida iqlimga qarab yozgi xonalar shimolga qaratilib, baland qilib qurilgan va ancha boy bezatilgan, oldida janub tomonga qaratilgan qishki uylar joylashgan. Xorazm hovlilarining yana bir xususiyati shuki, ichki ayvon shimol tomoni tomdan baland



ko‘tarilib, aksi tomon tom sathida bo‘lib, yoz paytlari tabiiy ventilyatsiya (shamol tortish) vazifasini bajarganyu Xozirgacha ko‘pgina Xorazm uylarida keng va baland ayvon (dolon) quriladi, ayrim joylarda qishloq hovlilari oldida tevaragi gujum (sada) daraxti ekilgan supali hovuz mavjud. Mazkur me‘morchilik usuli jazirama issiqdan saqlanadigan fayzli joy hisoblanadi. Mahalliy uylarda turar joylarni chiroyli qilib bezash va jihozlash qadimdan odat bo‘lib kelgan. Juda keng tarqalgan ikki qatorli sinch uylarning devorlari bo‘ylab to‘g‘riburchakli yoki peshtoq (gumbaz) shaklidagi bir necha taxmon (tokcha) lar o‘rnatilgan bo‘lib, ularda har xil uy-ro‘zg‘or buyumlari, idish-tovoq va ko‘rpa-to‘shaklar joylashtirilgan. Boylarning uylari nihoyatda nozik va jimjimador naqshlar bilan bezatilgan, ganch tokchalar va taxmonlar qimmatbaho idishlar va boshqa buyumlar bilan to‘ldirilgan. Marg‘ilon va Qo‘qonda bunday taxmonlar yarim gumbaz shaklida osma bezaklar bilan bezatilgan. Buxoroda dastavval devorlar ganch bilan suvalib, o‘yma naqshlar bilan rangli gullar yasalgan. [3, B.5] Farg‘ona va Toshkentda esa, aksincha, devorlar tekis, shipga har xil rangda gul solib bezash odat bo‘lgan. O‘ymakorlik va rangli bo‘yoqlar bilan rasm solish Buxoro, Samarqand va Toshkentda, eshik, darvoza va ustunlarga o‘yma naqshlar berish esa Xorazmda keng tarqalgan.

Uyni isitishda ko‘p joylarda sandal ishlatilgan. Sandalning tagiga ko‘mir yoqilib, ustiga katta ko‘rpa to‘shalgan va sandal tevaragida oila a‘zolari umumiy ko‘rpaga yopinib va o‘ralib o‘tirganlar. Farg‘ona vodiysida sandaldan tashqari kamin ko‘rinishidagi o‘choq bo‘lgan va unda qishda ovqat tayyorlangan. Xorazmda adanga yaqin joyda mo‘rili o‘choq qurilgan, uning oldida to‘rtburchak yoki tuxumsimon yassi shaklda kichkina maydonchaga o‘choqdan cho‘g‘ tortib, uyni isitganlar.

An‘anaviy uslubda polga chipta yoki bo‘yra to‘shalib. uning ustiga kigiz, palos yoki gilam yoyilgan. Ko‘p joyda devor bo‘ylab ko‘rpacha to‘shalgan, ovqatlanish vaqtida va mehmon kelganda (odatda mehmon uchun taxmondan yangi ko‘rpacha olib to‘shalgan) o‘rtaga dasturxon yoyilgan. Toshkent va Buxoroda dasturxonni xontaxtaga yoyganlar. Ko‘rpachalar eshik ro‘parasida to‘rdagi maxsus taxmonda yoki sandiq ustida taxlab qo‘yilgan. Yostiq-bolishlar chiroyli qilib kashtalangan yoki qurama qilib tikilgan, ko‘rpa-yostiqlar ba‘zan naqshli so‘zanalalar bilan yopib qo‘yilgan. Choynak-piyola va boshqa zarur buyumlar: chinni, mis va billur idishlar maxsus taxmon—mayda tokcha, reza tokcha, kosamon va hokazolarda did bilan joylashtirilgan. Pastki katta tokchalarda nafis sandiq va qutichalar, idish-tovoqlar, patnys, qumg‘on—tuncha va samovar qo‘yilgan, Ayrim badavlat uylarda tokcha va taxmonlar nozik o‘yma va rangli naqshlar bilan bezatilgan. Ko‘p uylarda kiyim-kechaklar va boshqa buyumlar devorga qadalgan qoziqchaga yoki maxsus tortilgan ipga osib qo‘yilgan.

Hozirgi o‘zbek uylari marqazlashgan isitish tizimlari, suv va gaz bilan ta‘minlangan. Shahar va qishloq uylarining ko‘pchiligi sanuzel va kanalizatsiyaga ega. Uylarning ichki va tashqi tomonini zeb-ziynatlashga katta e‘tibor berilmoqda. An‘anaviy jihozlanish zamonaviy mebel (garniturlar) ga o‘tkazilib, ular ko‘p qavatli va alohida uylarda ham yuksak did bilan joylashtirilyapti. Yurtimizda



hunarmandchilikning keng rivojlanayotganligi sababli stenka va tokchalarda qo'yiladigan buyumlarning turlari nihoyatda boy va rang-barang. Ayniqsa, hozirgi kelin-kuyovlar uyi chet el (import) va mahalliy garniturlar, xilma-xil idishlar va uy-ro'zg'or buyumlari, qimmatbaho gilam, choyshab va yopinchoqlar, noyob rasmlar va haykalchalar bilan jihozlanmoqda. Odat bo'yicha uyning to'ri mehmonniki yoki oila boshlig'i (eng keksa odam yoki uy egasi)niki. O'zbeklarda hozirgacha mehmondorchilik an'anasi nihoyatda mustahkam saqlanib kelganligi tufayli deyarli barcha uylarda mehmonxona yuksak did bilan bezatilib, toza turadi. Uydagi eng yaxshi xonalar mehmonxona sifatida ajratiladi. Ilgari ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi hisoblangan o'zbeklarda qishloqlarga joylashib, uy qurish asosan o'tgan asrlardan boshlangan. Ayrim etnografik guruhlarda (qarluq, barlos va hokazo) o'tgan asrning o'rtalarigacha qishki loydan qurilgan uylardan tashqari o'tov yoki kapa tiklash saqlanib kelgan. Ba'zi etnik guruhlar ilgaridan mustahkam qurilgan uylarda istiqomat qilganlar. Ammo ulardagi o'tovlar o'ziga xosligi bilan ajralib turgan. Masalan, o'zbeklarning turk qabilalarida lochig' yoki kapa deb nomlangan o'tov yarim shar shaklida bo'lib, yoysimon sinch qobirg'alari bilan qubba (gumbaza)si yaxlit holda yerga tiqilgan. Dashti qipchoq o'zbeklari o'tovi (uy, qora uy) ayrim panjarali devor (keraga)lar o'zaro bog'lanib, yuqori sferik shakldagi tomi uzun yog'och (o'q)lar bilan berkitilgan. Ikkala o'tovni ham keragalar bog'langan qamishdan to'qilgan bo'yra va kigiz bilan yopganlar. Dashti qipchoqliklarda maxsus to'qilgan kamar (ba'zan gilam, kigiz) bilan o'rab, bog'laganlar. O'tov o'rtasida gulxan yoqilib isitilgan, yuqorida tutun chiqadigan va yorug' kiradigan tuynuk qo'yilgan. Gulxan yoqiladigan joyga temir sepoyadan o'choq qilib qozon osilgan. Qattiq sovuqlarda gulxan yoqilib bo'lgach, yuqoridagi mo'ri kigiz bilan bekitilgan. Yozgi jazirama issiq paytlarda, aksincha mo'rining ham, keragalar o'ralgan kigizning ham pastki tomoni shabada kirishi uchun ochib qo'yilgan. [4, B.11]

O'tovni jihozlashda asosan jundan ishlangan turli xalta, to'rva, gilam, har xil yog'och va temir buyumlar, sandiq, oyoq ostiga palos, kigiz, echki va qo'y terisidan ishlov berib tayyorlangan po'stak va hokazolar ishlatilgan. O'tovda ham eng hurmatli kishi—uy egasi yoki mehmon to'rga o'tqazilgan. O'tovga kirishdagi chap tomon erkaklarniki, o'ng tomon ayollarniki hisoblangan. O'zbeklarning qo'ng'iroq va saroy qabi urug'larida hozirgacha hovli ichida o'tovni uchratish mumkin. Uni ba'zan hovli oldidagi bog'da yoki poliz o'rtasida ham tiklaganlar. Ilgari oddiy oilalar, ayniqsa ko'chmanchi o'zbeklar uy qurish yoki o'tov tiklash imkoniyatiga ega bo'lmay, kapalarda ham istiqomat qilganlar. Doirasimon yoki to'g'ri burchakli qilib tiklangan kapani, masalan, loqay qabilasi qishda issiq bo'lishi uchun loy bilan suvagan. Ular asta-sekin o'troq holatda dehqonchilikka o'tish bilan loydan qurilgan to'g'ri burchakli yoki doirasimon (o'tovni eslatuvchi) shakldagi uy (chubtora)ga ko'chib o'tadilar. Chubtora loy yoki guvaladan urilgan, past devorli, qamish va hashak bilan bekitilgan ikki nishabli tomdan iborat bir xonali uydur. Tomning o'rtasida tutun chiqadigan tuynuk ochilgan, uyning markazida chuqurcha qazib o'choq o'rnatilgan, o'choqni asosan tezak bilan yoqqanlar. Ayrim oilalarda o'troq aholidan o'tgan sandal



ishlatilgan. Odamlar chubtorada qish paytida istiqomat qilib, bahor kirishi bilan yaylovlarga chiqib, o‘tov yoki chayla tiklaganlar.

XX asr boshlaridan uy-joy qurish va uni jihozlash an‘analariga bir oz yangiliklar kira boshladi. Dastavval pishgan g‘ishtdan uy qurish, tunuka bilan tom yopish, derazalarga oyna solish va ko‘cha tomonni ochish kabi yangiliklar paydo bo‘ldi. Kerosin, keyin elektr lampasi, fabrika va zavodlarda ishlangan uy-ro‘zg‘or buyumlari ishlatila boshlandi. Qishloq uylarida ham ancha yangiliklar paydo bo‘ldi. Umuman olganda, qurilish materiallari va uslublarda ko‘pgina o‘zgarishlar ro‘y berdi.

Hozir yurtimiz shahar aholisining asosiy qismi qulay tarzda qurilgan ko‘p qavatli uylarda farovon yashamoqda. Bunday uylar zamonaviy santexnika va boshqa qulayliklar bilan ta‘minlangan. Shuningdek, ko‘p joylarda bir-ikki oilaga mo‘ljallangan alohida uy-joylar keng tarqalgan. Bunday uylar xom yoki pishgan g‘ishtdan paxsa yoki sinch uslubida qurilgan, tomorqa va boshqa uchastkaga ega. Poydevori odatda betondan quyilgan yoki pishgan g‘ishtdan urilgan. Ba‘zi hududlarda uylar xalqimizning odati bo‘yicha hashar yo‘li bilan quriladi. Deyarli butun shahar aholisi va ko‘p qishloqlarda uy jihozlanishi, ayniqsa ilgari butunlay bo‘lmagan turli mebellar, uy-ro‘zg‘or buyumlarining va ko‘rpa-to‘shaklarning an‘anaviy va zamonaviy uslubda joylanishi o‘ziga xos chiroy va quvonch bag‘ishlaydi. Hozirgi hovlilarda yog‘och polga gilam, palos va kigiz to‘shaladi, markazlashgan suv quvuri, gaz, elektr, aloqa vositalari mavjud.

Farg‘ona vodiysida qurilgan yangi uylarda mahalliy an‘anaviy uslub saqlanib, ikki xona o‘rtasida uch tomoni berk ayvon juda qulay va ixchamligi bilan, Xorazmda katta darvoza chiroyli g‘ishtlardan qurilgan keng va baland doloni va mehmonxonasi bilan kishini hayratda qoldiradi. Yangi uylarning derazalari tashqariga qaratilgan, hovlida tok, gul va meva daraxtlari ekilgan. Kichik oilalar uchun qurilgan uylar asosan ikki xona, katta oshxona va ochiq ayvondan iborat. Uy eshigi ayvon tomonda. Ba‘zan hovlilar to‘rida yangi oilaga mo‘ljallangan ikki xonali uy ham bo‘lgan.

O‘zbek oilalari ko‘pincha odat bo‘yicha asli ochiq havoda, hovlida vaqt o‘tkazadilar. Hovliga erta bahordan chiqiladi. Bu yerda asosan tok yoki daraxt soyasida yog‘ochdan yasalgan katta so‘rida, ba‘zan loy (g‘isht)dan qurilgan supada, ayrim joylarda chiroyli bezatilgan shiyponda hayot o‘tadi. Hozir uy-joylarning muhim jihozlaridan televizor, sovitgich, kir yuvish mashinasi, dazmol, tikuv mashinasi va hokazolar deyarli hamma oilalarda uchraydi. Qishloq hovlilarida, shahardagi ayrim shaxsiy uylarda alohida oshxona, molxona va tandir mavjud. Barcha oilalarda an‘anaviy uy jihozlaridan gilam, palos, kigiz, so‘zana va choyshab, kashtali parda va turli rasmlar hamda bezaklar xonalarga alohida husn bag‘ishlaydi. Ayniqsa yosh kelin-kuyovlarga mo‘ljallangan xonalar milliy tarzda xilma-xil kashtalangan dekorativ buyumlar, qat-qat ko‘rpacha, to‘shak va bolish (yostiq)lar, chiroyli gilam va yangi idishlar bilan bezatiladi. Ko‘p qishloq va shahar uylarida uy egalari fotorasmi, tabiat manzarasi, ota-ona va oila a‘zolarining portretlari va boshqa manzarali rasmlar o‘z o‘rnidan joy olgan. [5,b. 7]

## “SIRLI RANGLARDAGI MILLIY MEROS” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi



Xulosa qilib aytganda, xalqimiz uy-joy qurish, uni bezatish va jihozlashda asriy qadriyatlar, an'analar ega. O'zbek xonadonlaridagi chitroyli gilamlar, rang-barang ko'rpa va choyshablar, naqshinkor xontaxtalar, qalamdonlar, qutichalar, rangin bezakli devoriy naqshlar, hashamdor shiftlar xalqimizning nozik did va oliy his-tuyg'ularga ega ekanligini isbotlaydi.

Zamonaviy binokorlikda amaliy san'atning qurilishga xos turlaridan keng foydalanilmoqda. Devorlar va shiftlarga berilgan naqshlarning mutanosibli, puxtaligi, ranglarning uyg'unligi, nafisligi va yuksak badiiyligi xalqimiz azaliy an'analarning davom etayotganligidan dalolat beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jabborov. "O'zbek xalq etnografiyasi". Toshkent, "O'qituvchi"2. 1994 yil.
2. K. Shoniyozov, "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni". Toshkent, 2001 yil. A. Doniyorov. "O'zbekiston etnografiyasi tariximdan ayrim lavhalar". Toshkenti, 2003 yil. A. Doniyorov. "Mustaqil O'zbekiston etnografiyasi tarixshunosligining ayrim masalalari". Toshkent, 2003 yil
3. Intenet ma'lumotlari.

